

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil
3-oktabrdagi 12-mh-son,
Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-
yil 29-sentabrdagi 291-son,
Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil
26-sentabrdagi 11-son qaroriga
ILOVA

Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar

Umumta'lim muassasalari tomonidan shakllantirilgan dars soatlari setkasi umumta'lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan ikki ish kuni ichida ko'rib chiqilib, har yili 15-sentyabrga qadar o'qituvchilarga dars soatlari quyidagi ko'rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi:

1.	oliy malaka toifasiga ega o'qituvchilar (attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko'ra);
2.	dars beradigan fanidan pedagog xodimlarga ustama belgilashda qo'llaniladigan milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega o'qituvchilar (sertifikatning belgilangan darajasi va amal qilish muddatiga ko'ra);
3.	birinchi malaka toifasiga ega o'qituvchilar (attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko'ra);
4.	ikkinchi malaka toifasiga ega o'qituvchilar (attestatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddatiga ko'ra);
5.	oliy ma'lumotli toifasiz o'qituvchilar;
6.	qayta tayyorlash bo'yicha diplomga ega o'qituvchilar (o'qituvchida qayta tayyorlash mutaxassisligi bo'yicha mazkur bandning ikkinchi – oltinchi xatboshilarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlardan biri yoki bir

	nechtasi mavjud bo'lganda taalluqliligiga ko'ra tegishli ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan o'qituvchilar bilan teng ustuvorlikka ega bo'ladi);
7.	o'rindoshlik asosida ishlayotgan oliy ma'lumotli o'qituvchilar;
8.	oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishi bo'yicha uchinchi va undan yuqori kurs talabalari;
9.	oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlanguniga qadar o'rta maxsus, professional ma'lumotga ega o'qituvchilar (faqat boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar uchun);
10.	oliy ma'lumotli o'qituvchilar bilan ta'minlanguniga qadar umumta'lim muassasasining tegishli mutaxassisligi bo'yicha rahbar xodimlari.
11.	Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha dars soatlarini taqsimlashda o'qituvchilarning boshlang'ich ta'lim mutaxassisligiga egaligi yoki tegishincha ushbu fanni boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi bo'yicha ta'lim olganligi inobatga olinadi.
12.	Umumta'lim muassasasining pedagogik kengashi tomonidan dars soatlari qayta taqsimlanishi mumkin.